

# **Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**

## **2018-yil yanvar-iyun oylarida QURILISH ISHLARI**

Joriy yilning yanvar – iyun oyida viloyat bo'yicha 1 615,6 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 259,7 mlrd.so'mni yoki 83,3 foizni tashkil qildi. Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 52,4 %i yoki 845,9 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,6 % ni yoki 510,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,6 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi . Shu jumladan, G'uzor tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 58,7 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 74,1 foizni, mos ravishda, Muborak tumanida – 75,5 mlrd.so'mni yoki 72,4 foizni, Shaxrisabz tumanida – 51,9 mlrd.so'm yoki 63,3 foizni, Mirishkor tumanida – 31,0 mlrd.so'm yoki 62,9 foizni tashkil etdi.


### **Raqamlar:**

**Qurilish-montaj ishlari hajmi – 1615,6**

**Yirik qurish-pudrat tashkilotlari ulushi – 16,1 %**

**Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi – 52,4 %**

**Qurilishda norasmiy sektoring ulushi – 31,5 %**




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,8 %ni tashkil etdi.

Fuqorolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,1 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,1 %ni tashkil qildi.

		<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>			<b>Jami qurilish xajmidan</b>
<b>JAMI (mlrd.so'm)</b>		Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta quollantirish
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>1615,6</b>	1289,9	115,3	210,4	1164,1
<b>Nodavlat :</b>	<b>1580,0</b>	1289,0	88,8	201,3	1150,7
<b>Davlat:</b>	<b>35,6</b>	-	26,5	9,1	13,4



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati 2018 yil yanvar-iyun uchun**



## Hududlar kesimida qurilish ishlari quyidagicha ifodalanadi


	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1615,6</b>	<b>100,1</b>	<b>211,9</b>	<b>73,2</b>
tumanlar:				
G'uzor t	58,7	74,1		
Dehqonobod t	52,1	98,6		
Qamashi t	35,0	101,3		
Qarshi t	156,4	107,3	2,9	8p
Koson t	203,9	100,6	101,1	90,5
Kitob t	124,0	138,9		
Mirishkor t	31,0	62,9		
Muborak t	75,5	72,4	13,2	60,3
Nishon t	42,6	100,0	1,5	54,8
Kasbi t	62,4	93,1	0,8	2p
Chiroqchi t	129,9	119,5		
Shahrisabz t	51,9	63,3		
Yakkabog' t	88,4	104,3	1,6	122,2
Qarshi sh	434,6	104,3	72,5	86,9
Shahrisabz sh	69,2	127,5	18,3	89,9

## **Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari**

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1580,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,8 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 35,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,2 foizini tashkil qildi.

## Mulkchilik shakllari

(foizda)



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (0375) 221-32-47